O`QUVCHILARNI MA`NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA O`QITUVCHILARNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

Usmonova Dilobar
Qashqadaryo viloyat PYaMO'MM
Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrasi o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7698854

Annotatsiya. Maqolada o`quvchilarni ma`naviy-axloqiy tarbiyalashda o`qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari haqida ma'lumotlar bayon etilgan. Shu bilan birga zamonaviy darslar va bu darslarni tashkil etish yo'llari bayon etilgan.
Kalit so'zlar. Ta'lim tizimi, darslar, zamonaviy darslar, didaktik o'yinlar, ijodiy imkoniyatlar, interfaol usullar, o'qituvchi mahorati.
Abstract. The article describes the methods of teachers' use of modern Q 50% pedagogical technologies in the spiritual and moral education of students. At the same time, modern lessons and ways of organizing these lessons are described.
Keywords. Educational system, lessons, modern lessons, didactic games, creative methods, possibilities, interactive teaching skills.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab o'tgan vaqt mobaynida o'zbek xalqi siyosiy – ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda katta yutuqlarga erishdi. Ba'zan tezlik bilan o'zgarayotgan dunyo qiyofasini oldindan bashorat qilish mumkin bo'lgan bir davrda, xalqimiz ertangi kuniga ishonch bilan intilayotgan, to'g'ri tanlangan taraqqiyot yo'li ilk samarasini ko'rsatayotgan, yangicha tafakkur, g'ayrat va shijoat bilan yangi avlod vakillari maydonga kirib kelayotgan O'zbekiston zaminida mustaqillikni mustahkamlash, barqaror taraqqiyotni ta'minlash, tinchlik va barqarorlikni asrab – avaylashga ma'naviy tarbiyaning ahamiyati yanada kuchaymoqda.

Ma'naviyat-inson ruhiy, aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, xuquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Ma'naviyat atamasining asosida "ma'ni" so'zi yotadi. Ma'lumki, insonning ichki va tashqi olami mavjud. Tashqi olami uning bo'y–basti, ko'rinishi, kiyinishi va hatti–harakatlari kiradi. Ichki olamiga esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu–istaklari, intilishlari, his-tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Insonning ana shunday ichki olami ma'naviyatdir. Ma'naviyat va axloq bir- biri bilan bog'liq bo'lib bir-birini to'ldiradi.

Zero, jamiyat rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotidangina emas, balki ma’naviy yuksalishini ham taqozo etadi. Har qanday mafkura kabi O’zbekistron Respublikasi milliy istiqlol mafkurasiningf asosiy g’oyalaridan biri ham jamiyatda ma’naviy-axloqiy qarashlarning ustuvorligiga erishish sanaladi.

Bugungi kun ta`lim tizimining maqsadi o`zgarishlar, yangilanishlar sharoitida mustaqil holda o`ziga to`g`ri yo`l topa oladigan, barcha imkoniyatlarning yuzaga chiqara oladigan erkin ijodkor shaxsni-barkamol yoshlarni tarbiyalashdan iboratdir. Bu esa o’z navbatida, ta’lim tizimida ham yangilanishlar zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Bugungi kun talabiga javob bera oladigan zamonaviy darslarning asosiy shartlari uning qiziqarli o’tilishi, o’quvchilarni zerikmasligidir. Bilim oluvchini mustaqil o’qib-o’rganishiga undaydigan bunday darslarda ta’limiy o’yinlardan foydalanish katta ahamiyatga egadir. O`yinlar orqali o’quvchining faolligi ortadi, ijodiy imkoniyatlari ro’yobga chiqadi. Didaktik o’yinlarning asosiy turlari; aqliy harakatli va aralash o`yinlaridan iborat. Bular o`quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma`naviy, psihologik,estetik, badiiy ko`nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O`yinlar o`quvchilarni ichki imkoniyatlarini ishga tushirishga o`ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga,ijodkorlikka undaydi.

Didaktik o`yinlar nazariy, amaliy, jismoniy rolli, ishchanlik va boshqa yo`nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o`quvchilarda taxlil qiliosh, mantiqiy fikrlash, tatqiq qilish , hisoblash, o`lchash/ yasash,kuzatish, hulosa chiqarish, solishtirish, mustaqil qaror qabul qilish, nutq o`stirish, til o`rganish va yangi bilimlar olish faoliyatini rivojlantiradi.

Didaktik o`yinlar turlarini tanlashda o`qituvchi quyidagi mezonlarga rioya qilishi zarur:

- ishtirokchilarning tarkibi bo`yicha (o`gil bolalar, qizlar yoki aralash);
- O`quvchilarning soni bo`yicha (yakka, guruxli,juftlik, kichik gurux va hk);
- O`yin jarayoni bo`yicha (fikrlash, o`ylash, topag`onlik,harakatlar,musobaqa, berlashuv)
- Vaqt meyori bo`yicha (dars davomida, ma`lum vaqt oralig`ida, g`olib aniqlanguncha va hk).

O`yinlarni qo`llashdan oldin o`qituvchi o`quvchilarga uning shartini tushuntirishi va imkon qadar birgalikda bajarishi lozim. Buning uchun o`qituvchining o`zi o`yin shartini obdon o`rganishi, uni o`quvchilarga taqdim etish usullarini oldindan bilishi kerak. Qaysi darsda, qaysi mavzuda qanday o`yindan foydalanishiga etibor berish shart. Interfaol usullar ta`lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustsqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg`ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo`llanilganda mustaqil ishlash ko`nikma va ma`lakasi rivojlanadi.

Ma`lumki, hozirgi kunda intrfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo`lib, ularning aksaryati tajriba- sinovidan o`tib, yaxshi natija bergan. Eng asosiylaridan biri- bu kichik guruxlarda ishlash. Ta`lim jarayoni qatnashchilari kichik guruxlarga bo`lingan holda ishlaydi, o`quv topshiriqlari alohida bir o`quvchiga emas, balki kichik guruxning barcha azolariga beriladi. Guruxlarning har bir a`zosi topshiriqni bajarishga o`z hissasini qo`shishga harakat qiladi.

Pedagogik texnologiya asosida o`tkazilgan mashg`ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolarga o`z munosabatlarini bildirishga intilishlarini tarbiyalab, ularni fikrlashga, o`z nuqtayi nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Innavatsion texnalogiyalar pedagogik jarayon hamda o`qituvchi va o`quvchi faoliyatiga yangilik o`zgarishlar kiritish bo`lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalaniladi. Interfaol darslarda o`qituvchi o`quvchilarning faoliyatini dars maqsadiga yo`naltiradi. Bu usullarning o`ziga hosligi shundaki, ular faqat pedagog va o`quvchilarning birgalikda faoliyat ko`rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o`ziga hos hususiyatlarga ega bo`lib, o`quvchining dars davomida befarq bo`lmasligi, mustaqil fikrlashi, ijod va izlanishga jalb etilishi, ta`lim jarayonida fanga bo`lgan qiziqishlari doimiylagi ta`minlanishi, o`qituvchi va o`quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatining doimiy ravishda tashkil etilishini ta`minlaydi.

Har bir o`qituvhi o`quvchilarning yaxshi o`qishlarini, darslarga ishtiyoq bilan yondashishlarini istaydi. O`quvchi darsga qiziqmasa, o`qituvchining shijoatini so`ndiradi.Bu, albatta, pedagogik jarayonda bir qator muammolarni vijudga keltiradi.Zero, V. Suxomlinskiy aytganidek, ”Agarda o`quvchida o`qishga qiziqish bo`lmasa, barcha izlanishlarimiz- u o`ylagan niyatimiz puchga chiqadi”.

O`quvchi darslarga befarq bo`lib, unga qiziqmasa va extiyoj sezmasa, samarali o`qitishga erishish mushkul. Shu sababli o`qituvchi oldida o`quvchini o`quv jaroyoniga qiziqtirish vazifasi turadi.

Bolalarni darslarga qiziqtirishda boshlang`ich sinfdayoq jiddiy muammolarga duch kelinadi. Chunki bolalar ko`p chalg`ishadi, shovqin- suron qilishadi, o`qituvchini tinglashmaydi, sinfdagi mashg`ulotlar va uy vazifalarini bajarishga qunt qilishmaydi.

O`quvchi ulg’aygan sari ba’zan ularning fe’l-atvorida o’qishga qiziqmaslik bilan bog’liq sabablar ham ko`payib boradi. O`quv faoliyatini jonlantirishga intilishning an`anaviy usuli bu – yomon baxolar bilan ”siylash” hisoblanadi. O`quvchi yomon baxodan ta`sirlanadi, ammo bu xam har doim ijobiy samara bermaydi.

Bolada o`qishga bo`lgan qiziqishni oshirish uzoq muddat davom etadi, aniq maqsadga yo`naltirilgan va o`ta mashaqqatli mexnat ta`lab qiladi. Boshlang`ich ta`limda bolalarni o`quv faoliyatiga qiziqtirish ”Dars- sayoxat”, ”Dars-o`yin”, ”Yozuvchilar bilan uchrashuv”, Syujetli dars, ”Dars- musobaqa’,”Dars-tatqiqot”,”Ijodiy ishlar himoyasi” kabi dars turlarini tashkil etish orqali amalga

oshiriladi. Darsning tirli bosqichlarida qiziqtirishning har xil usul va yo`llarini qo`llash o`quvchilarning o`qishga bo`lgan intilishini mustahkamlaydi.

Bu o`rinda ko`p narsa pedagogning mahorati, uning o`quv- tarbiya ishini tashkil eta olish qobilyati, ijodi va doimiy izlanishiga bog`liq. Qaysidir ma`noda standart darsdan yiroqlashish, o`quvchilar e'tiborini tortish, ular faoliyatini jonlantirish, ularni fikrlash, izlanish va harakat qilishga undash uchun yangi dars o`tish jarayonlari kerak bo`ladi.

O`quvchilarga axloqiy tarbiya berishda xilma xil metodlardan foydalaniladi: Birinchidan, maktabdagi o`qish jarayoni yuksak darajada uyishtirilishi kerak. Buyuk nemis pedagogi A.V. Disterveg takidlaganidek, yaxshi o`qitish bilangina o`qituvchi o`quvchini yaxshi tarbiyalay oladi.

Ikkinchidan, axloqiy tarbiya jarayonining muvofaqqiyati o`quvchilar va o`qituvchilar jamoasining saviyasiga bog`liq. Jamoa axloqli bo`lsa, bolalar intizomli bo`ladi.

Uchinchidan, tarbiyaviy ishlarni rejali bo`lishi va hamjihatlik bilan amalga oshirilishi axloqiy tarbiyaning muvafaqqiyatini taminlaydi. A.S.Makerenko 10 ta yuqori malakali o`z holicha ishlaydigan o`qituvchidan malakasi past, ammo bir yoqadan bosh chiqarib ishlaydigan 5 ta o`qituvchi afzal- degan edi.

To`rttinchidan, maktabdan ijobiy emotsional sharoit yaratish axloqiy tarbiya jarayonida muvaqqiyatli ta'sir ko`rsatadi.

Beshinchidan, barcha o`quvchilarning maktabdagi umumiy tartib, hayot rejimiga amal qilishga erishmoq darkor.

Bugungi kunda ajdodlar ma`naviy merosini ularning yurtimiz tarixi, madaniyatiga qo`shgan hissasini o`rganish ular ilgari surgan ma`rifatparvarlik g`oyalarini ilmiy asosda talqin etish va ta`lim- tarbiya sohasida keng foydalanish hamda yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Buyuk allomalarimiz takidlaganlaridek insondagi komillik eng avvalo, uning fikrlash ko`lami, tafakkuri va amaliy faoliyati bilan bog`liqdir. Insonning o`z o`zini bilishi, anglashi, boshqalar oldidagi mas`uliyat va majburiyatini his qilishi uning tarbiyasi bilan bog`liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.- T.: - Sharq. 2000 y.

2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, TDPU, 2003.

3. Ishmuhammmedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: TDPU, 2005.

4. Ishmuhammmedov R. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. - T., 2010.